

XX ASR IKKINCHI YARMI XITOY ADABIYOTIDA DRAMA JANRI ISLOXOTLARI

Komilova Shahnoza Turabuddinovna,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

Xitoyshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi

shahnoz7779@gmail.com.

telefon:+998909597915

ANNOTATSIYA

Mazkur makolada XX asr ikkinchi yarmi xitoy adabiyotida drama janri isloxotlari xususida so'z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda maqolada XX asr boshlarida janrning avvalgi shaklidan tubdan farqli jihatlari, shakllanish omillari hususida ham so'z yuritiladi. XX asr ikkinchi yarmi 80-90 yillariga kelib janrning yangi talqinlari, dramaturglar yaratgan asarlari, g'arb drama nazariyasi ta'sir masalalari, tarjimalarning o'rni kabi masalalar imkon qadar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *G'arb modernistik adabiyoti, Pekin xalq badiiy teatri, hikoyaviy drama, absurd drama, ijtimoiy muammoli drama, drama munozarasi, drama islohotlari.*

О РЕФОРМАХ ДРАМАТИЧЕСКОГО ЖАНРА В КИТАЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА.

Комилова Шахноза Турабудиновна,

Ташкентский государственный университет востоковедения,

Старший преподаватель Высшей школы китаеведения

shahnoz7779@gmail.com.

телефон:+998909597915

АННОТАЦИЯ

Эта статья рассказывает о реформах драматического жанра в китайской литературе второй половины XX века. Кроме того, в статье рассказывается о факторах формирования, принципиально отличающихся от предыдущих форм жанра начала XX века. К 80-90-м годам второй половины XX века были изложены новые интерпретации жанра, произведения созданные драматургами, теория западной драмы, вопросы влияния, места переводов.

Ключевые слова. *Западная модернистская литература, Пекинский народный художественный театр, повествовательная драма, абсурдная драма, социально-проблемная драма, драматическая дискуссия, драматические реформы.*

THE REFORMS OF THE DRAMATIC GENRE IN CHINESE LITERATURE IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY.

Kamilova Shakhnoza Turabuddinovna,

Tashkent State University of Oriental Studies,
Senior Lecturer at the Higher School of Chinese Studies

shahnoz7779@gmail.com.

Phone:+998909597915

ABSTRACT

This article talks about the reforms of the dramatic genre in Chinese literature in the second half of the 20th century. In addition, the article talks about formation factors that are fundamentally different from previous forms of the genre of the early 20th century. By the 80-90s of the second half of the 20th century, new interpretations of the genre, works created by playwrights, the theory of Western drama, issues of influence, and places of translation were outlined.

Key words: *Western modernist literature, Beijing People's Art Theater, narrative drama, absurdist drama, social problem drama, dramatic discussion, dramatic reforms.*

KIRISH

Xitoyda teatr va dramaturgiya asrlar mobaynida milliy an'analar o'zanida rivojlandi. Biroq XX asr boshlariga kelib g'oyaviy yo'nalish, mazmun-mundarija, shaklda yangilanishlar, o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrga kelib jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlar tufayli milliy san'atda murakkab jarayonlar yuzaga keldi. An'anaviy teatrdan yuzaga kelgan inqirozli holat xorijiy madaniyatni faol o'rganish va shu asnodan dramaturgiya va teatrning yangi ko'rinishini rivojiga turtki bo'ldi. Bu san'at Xitoyga G'arbdan inqilobiy-demokratik g'oyalar bilan birga kirib keldi. Shu davrlarda 话剧 huà jù ("og'zaki drama") – zamonaviy dramaning ilk namunalari matbuotda chop etila boshladi [1:2]. "Og'zaki drama" deb nomlanadigan bu san'at turining o'ziga xosligini, dramaning an'anaviy, eski, sinkretik musiqiy shaklidan tubdan farq qilishiga ishora qiladi. Unda odatda qadimgi tilda ijro etiladigan she'riy monolog - ariyalar o'rnini jonli zamonaviy so'zlashuv uslubi asosiy o'rinni egalladi. Nafaqat drama tilida, personajlar nutqida, balki asosiy badiiy tasvir vositalari, p'yesalarning parda va aktlarga bo'linishida, qahramonlarning libos va sahna dekorasiyalarida keskin farqlar ko'zga tashlandi. Yangi san'at – bu voqelikni yangicha idrok etish shakli, xalq ma'naviy hayotining yangi sohasi sifatida maydonga chiqdi. Uni an'anaviy teatrdan farqli jihatlaridan yana

biri muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik va boshqa dolzarb masalalarning ko'tarilishidir.

Asosiy qism. Yangi davr drama munozarasi islohotlariga voqelikning chuqur ta'siridan tashqari, ikkita dramatik an'ana ham ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, yangi adabiyot inqilobidan keyingi voqelar ayniqsa, 话剧 (huà jù) ning ijobiy va salbiy tajriba va saboqlari; ikkinchidan, xorijiy modernistik dramaning tushunchalari va amaliyoti. Ular orasida tashqi ta'sirlarning kuchi katta ahamiyatga ega, bu 1982-yillar atrofida drama munozarasi bo'yicha bahslarda o'z aksini topdi. Bu qarama-qarshiliklar G'arb modernistik adabiyotining Xitoy adabiyotiga keng ta'siri natijasida yuz berdi. Xorijiy zamonaviy drama, 4-may harakati davrida tanishtirilgan Meterlink, Gaupman, Jon Guqin, Strindberg, Kayzer, Toller, O'Neill va futurist dramaturglar Maritini va Keydan asarlarini qayta tanishtirishdan tashqari, XX asr 50-60 yillarda Fransiyada paydo bo'lgan hamda bir vaqtlar Yevropa va AQSHni qamrab olgan Bekket, Ionesku, Adamov, Jan-Genet, Pinter, Albi va boshqalarning absurd dramalari Xitoyga ham kirib kelgan. 1979-yilda Xitoy Yoshlar Badiiy Teatri Brextning "*Galiley hayoti* (伽利略传 gā lì luè chuán)" dramasini namoyish etdi, u Brext va Stanislavskiyning ikkita asosiy dramatik tizimini uyg'unlashtirishda tajriba vazifasini o'tadi. 1981 yilda Shanxay yoshlar drama truppasi Shanxayda Sartrning mashhur "*Iflos qo'llar* (肮脏的手 āng zāng de shǒu) spektaklini namoyish etdi. 1983-yil may oyida Pekin xalq badiiy teatrida Artur Millerning o'zi rejissorlik qilgan "*Sotuvchining o'limi* (推销员之死 tuī xiāo yuán zhī sǐ)" spektakli namoyish etildi [2:2]. Drama nazariyasi tomondan dastlab Brextning hikoyaviy dramasi, so'ngra absurd dramatik nazariyasi, so'ngra Grotovskiyaning sodda dramasi, Piter Brukning shafqatsiz dramasi va boshqalar Xitoyga kirib keldi hamda drama dunyosi va sahna faoliyatiga keng va chuqur ta'sir ko'rsatdi. G'arb modernistik dramasiyning realizmgga qarshi isyoni, Meterlinkning statik dramasi va absurd dramaturgiyasining sof dramatik nazariyasi Xitoy dramaturgiya to'garagining dramatik an'anani qayta anglashi va an'anaviy Xitoy operasi merosini qayta baholashiga muhim ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sirlar oxir-oqibat drama konsepsiyasida tortishuvlarga olib keldi.

Drama konsepsiyasi bahsida eski drama tushunchalari, ya'ni uzoq vaqtdan beri mashhur bo'lgan yagona Ibsen ijtimoiy muammoli drama modeli va Stanislavskiy tizimi ta'sirida hayot illyuziyasini yaratuvchi modelini qayta ko'rib chiqish va tushuntirib berish talabini ilgari surishgan. Munozarada 60-yillarda Huan Zuolin tomonidan taklif qilingan dramaning erkin ko'rinishi qayta taklif qilindi.

Gao Xingjianning fikricha, Ibsenning ijtimoiy axloqiy pyesasi o'ziga xos kontseptual drama sifatida bir asrdan buyon mavjud bo'lgan, undan keyin ham jahon dramaturgiyasi rivojlanishdan to'xtamagan, biz uni Tongzhi va Guangxu yillaridagi

kabi xorijiy dramaturgning dramatik konsepsiyasi qo‘l va oyoqlarimizni bog‘lash uchun engib bo‘lmaydigan drama kodeksi deb hisoblashimiz shart emas. Munozara ijodiy dunyo va sahna faoliyatidagi dramatik izlanishlar uchun jamoatchilik fikrini qo‘llab-quvvatlaydi. Munozara davomida G‘arb zamonaviy dramaturgiyasiga tayanish, realistik drama modelining kishanlarini yorib o‘tib va dramaturgiya innovatsiyasini amalga oshirish g‘oyasi drama dunyosida keng e‘tibor qozondi[.

Shanxaydagi ushbu munozara birinchi marta 1983-yilda “Drama san’ati” da Huan Zuolinning realizm, gallyutsinatsiya dramasi va gallyutsinatsiyasiz drama haqidagi nazariy xulosasining to‘g‘riligi haqidagi munozara bilan boshlangan. Pekinda “Drama gazetasi” drama munozaralari masalasi bo‘yicha keng va chuqur muhokamani boshladi. Muhokama drama jamoatchiligining e‘tiborini tortdi va butun Xitoyga ta’sir ko‘rsatdi.

“Drama turkumi”, “Pyesa”, “Dramashunoslik”, “Drama dunyosi” va boshqa nashrlarda ko‘p yillar davomida dramaning tabiati va mohiyati, drama qonun-qoidalari, sahna tasavvurlari, drama va tomoshabinlar, dramatik fikrlash va boshqa shu kabi maqolalar chop etilgan, bu masala akademik jihatdan keng va chuqur muhokama qilingan. [3:2]. Muhokama 1985-yilda avjiga chiqdi va 90-yillarda ham vaqti-vaqti bilan drama konsepsiyasi bo‘yicha muhokama maqolalari nashr qilinardi. Munozara davomida Gao Xingjian, Chen Gongmin va Tan Xusheng dramaning tabiati haqida mos ravishda harakat nazariyasi, denotatsiya loyqa nazariya va vaziyat nazariyasini taklif qildilar, Tong Daoming dramaning faraziy g‘oyasi bo‘yicha chuqur izlanishlar olib bordi, Lin Kehuan va boshqalar konsepsiyaning sahnaviylik darajasiga yuqori baho berdilar, realizm va modernizm o‘rtasidagi munosabatlarga kelsak, aksariyat sharhlovchilar ochiq realistik pozitsiyani egalladilar.

Drama konsepsiyalarini o‘rganish bilan parallel ravishda dramatzatsiya olamida ijod va sahna faoliyatini o‘rganish kiradi.

Ijtimoiy e‘tiborni o‘ziga tortgan eng dastlabki kashfiyot dramasi “Uydan tashqarida issiqlik bor(屋外有热流 wū wài yǒu rè liú)” falsafiy dramasi bo‘ldi.

Drama mavzusi yoshlarni shaxsiyatchilikning kichik doirasidan chiqib, jamiyatga kirib borishga, shijoatni singdirishga, madaniy inqilobning qalbida qoldirgan soyasidan xalos bo‘lishga da’vat etishdan iborat. Ushbu drama mazmuni an’anaviy bo‘lib, u e‘tiborni o‘ziga tortdi, bir tomondan shaklan simvolizm, ekspressionizm va absurd dramatik uslublariga dadil murojaat qilingan (real sahnalar va xotiralar, orzular bir biri bilan chambarchas bog‘langan, erkin sahnadagi vaqt va makon, devorlardan o‘tayotgan o‘lik odamlar, sahnada arvohlarning paydo bo‘lishi, suhbat qurishi va hokazo), bir vaqtning o‘zida tetiklantiruvchi; ikkinchi tomondan, qahramonlarning ma’naviy olamini ifodalashga, mavzuga muayyan falsafiy mazmun

berishga intiladi. Mazkur dramaning mukofotlanishi, kashfiyot dramasi paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

1984 va 1985-yillarga kelib, dramatik izlanishlar to'liqini o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda kashfiyot dramasi jarayoniga asosan G'arb zamonaviy dramaturgiyasi tushunchalari va uslublari ta'sir ko'rsatdi. Ulardan eng ta'sirli asarlar quyidagilar: "Qon doim qaynoq (血, 总是热的 xuè, zǒng shì rè de)" (Zong Fuxian), "Chin imperatori Shimin (秦王李世民 qín wáng lǐ shì mín)" (Yan Xayping), "A-Kyuning haqiqiy hikoyasi (阿 Q 正传 ā Q zhèng zhuàn)" (Chen Baychen), "Yo'l (路 lù)" (Ma Zhongjun, Jia Xongyuan), "Mutlaq ishora (绝对信号 jué duì xìn hào)" (Gao Xingjian, Liu Huiyuan), "Bekat (车站 chē zhàn)" (Gao Xingjian), "O'n besh ajralish ishini tekshirish va tahlil qilish (十五桩离婚案的调查剖析 shí wǔ zhuāng lí hūn àn de diào chá pōu xī)" (Liu Shugang), "Hayot Sevgi Ozodlik (生命·爱情·自由 shēng mìng · ài qíng · zì yóu)" (Luo Guoxian), "Xushbichim (周郎拜帅 zhōu láng bài shuài)" (Vang Gongpei), "Chuqur xiyobon (小巷深深 xiǎo xiàng shēn shēn)" (Vang Shuyuan), "Bu payshanba 4-sonli gazeta (本报星期四第四版 běn bào xīng qī sì dì sì bǎn)" (Vang Chenggang), "Murdaning tiriklarga tashrifi (一个死者对生者的访问 yí gè sǐ zhě duì shēng zhě de fǎng wèn)" (Liu Shugang), "Qizil xona·Oq xona·Qora xona (红房间·白房间·黑房间 hóng fáng jiān · bái fáng jiān · hēi fáng jiān)" (Ma Zhunjun, Qin Peyxun), "Ufqda bir guruh er-yigitlar bor (天边有群男子汉 tiān biān yǒu qún nán zǐ hàn)" (Zhou Zhentian), "Yovvoyi (野人 yě rén)" (Gao Sing jian), "Sehrli kubik (魔方 mó fāng)" (Tao Jun), "WM (Biz 我们 wǒ mén)" (Vang Peigong) va boshqalar.

1986-yilning boshigacha butun mamlakat bo'ylab tarqalib ketgan dramaga bo'lgan izlanish ishtiyoqi so'na boshladi, shundan beri tobora ekinlashib borayotgan dramatik tadqiqotlar olamida faqat matonatlilarning izlari qoldi. Bu bosqichda eng nufuzli asarlarning aksariyati G'arb modernistik drama estetikasini o'ziga singdiruvchi va hazm qilgan realizm ko'rinishida paydo bo'ldi. "Qora ot (黑骏马 hēi jùn mǎ)" (Luo Jianchuan), "Gou'erye nirvanasi (狗儿爷涅槃 gǒu ér yé niè)" (Jin Yun), "Er-yigitni qidirib (寻找男子汉 xún zhǎo nán zǐ hàn)" (Sha Yexin), "Oy nuriga to'la cho'l (洒满月光的荒原 sǎ mǎn yuè guāng de huāng yuán)" (Li Longyun), "Xitoy orzusi (中国梦 zhōng guó mèng)" (Sun Huizhu, Fey Chunfang), "Yigirma yoshli bahor (二十岁的春天 èr shí suì de chūn tiān)" (YuYun, TangIn), "Sangshuping yilnomasi (桑树坪纪事 sāng shù píng jì shì)", "Yunsyun (芸香 yún

xiāng)” (Syu Pinli), “Kuya (蛾 é)” (Che Lianbin) va boshqa pyesalar 话剧 huà jù bo’yicha izlanishlarning chuqurlashganini ko’rsatadi.

Kashfiyot dramasi ikki bosqichga bo’lish mumkin: 1985-yilgacha kashfiyot dramasi zamonaviy G’arb dramasi dramatik tushunchalari va usullaridan ko’proq ta’sirlangan; 1985-yildan 1989- yilgacha realizmning ochilishi va chuqurlashishi, modernistik drama estetikasining to’liq singishida ko’proq namoyon bo’ldi. Asar va realizm o’rtasidagi munosabat nuqtai nazaridan kashfiyot dramani ikki toifaga bo’lish mumkin: biri realizm tamoyili ostida zamonaviy dramaturgiya uslublarini oqilona o’zlashtirish, natijada realizmning ifoda texnikasini boyitish va realizmni targ’ib qilish, masalan “Uydan tashqarida issiqlik bor (屋外有热流 wū wài yǒu rè liú)”, “Mutlaq ishora (绝对信号 jué duì xìn hào)”, “Murdaning tiriklarga tashrifi (一个死者对生者的访问 yí gè sǐ zhě duì shēng zhě de fǎng wèn)”, “Gou’erye nirvanasi (狗儿爷涅槃 gǒu ér yé niè)” va “Sangshuping yilnomasi (桑树坪纪事 sāng shù píng jì shì)” kabi dramalarni rivojlantirish; Boshqa turi dramaning asosiy turlaridan tashqarida bo’lib, u modernistik dramani o’rganishga to’liq asoslangan, masalan, sahna yo’qligi, ko’p ovozli kombinatsiya, roman tuzilishi, erkin qo’l dramasi va boshqalar, masalan, “Qizil xona, oq xona, qora xona”, “Yovvoyi”, “Sehrli kubik” va boshqalar bu toifaga kiradi.

Masalam “*Sangshuping yilnomasi*” nomli drama 1968-yil atrofida Xitoyning g’arbiy qishloqlaridagi holat fon vazifasini bajarib, omon qolish uchun kurashayotgan g’arbiy hududlardagi dehqonlarning fojiali hayotini ko’rsatadi. Pyesa nafaqat hayratlanarli dramatik to’qnashuvlar, o’ziga xos belgilar va ulkan hissiy ta’sirga ega, balki asarga lirik effekt berish uchun qo’shiq va raqs guruhlari kabi hikoya usullaridan ham foydalanadi. Hayot haqidagi fikrni mustahkamlash uchun asarda realizm va erkin usul bilan uzviy uyg’unlashgan, ramzlardan realizmni yuksak darajaga ko’tarish va realizmdan ramzlarni boyitish (masalan, Chen Qingnu tushirib yuborgan to’liq bo’lmagan oq marmar haykal, taqdim etilgan sariq ipak va h.k.), chuqur voqelik tuyg’usi yozuvchining kuchli subyektivlik hissi bilan birlashtirilgan.

Drama izlanishlari orqali Xitoy 话剧 huà jù badiiy tushunchalari, ijodiy g’oyalar va estetik izlanishlar tomondan yangi xususiyatlarga ega bo’ldi. Badiiy tushuncha nuqtai nazaridan dramaturgiya siyosatga bo’ysunishdan qutulib, oddiy siyosiy vosita bo’lmay qoldi. Yozuvchilar endi hayotni faqat siyosiy nuqtai nazardan emas, balki butun jamiyat nuqtai nazaridan, madaniyatning barcha jabhalaridan kelib chiqib kuzatadi va ifodalaydi, hayot, uning boyligi va murakkabligi haqida yozadi. Ijodda yozuvchilar hayotning endi passiv aks ettiruvchisi emas, balki ijodkorning (rejissorlar, ssenariynavislar) subyektiv tashabbusi ilgari surila boshladi, bu birinchi navbatda ko’pchilik dramatik asarlarning realistik zamon va makondagi burilishlarida

namoyon bo'ldi, ikkinchidan 4-may harakatidan boshlab shakllanib kelgan eskirgan odatlarni bartaraf etishda namoyon bo'ladi, Turli vositalardan (musiqqa, qo'shiq, raqs va pantomima harakatlari kabi qardosh san'at elementlari, gimnastika, akrobatika elementlari, zamonaviy texnologiya olib kelgan ovoz, yorug'lik va elektr energiyasi kabi texnik elementlar) dadil foydalanib, faqat o'zi uchun ishlaydigan ulkan keng qamrovli san'at tizimi qurila boshladi. Ko'pgina dramalarda ijodkorlar ko'pincha boshlovchi, hikoya qiluvchi va hatto xor yordamida hikoyaga o'zlarining sharhlarini tushuntirish uchun foydalanadilar, bu ham subyektiv tashabbusning namoyonidir. Ma'naviy ifodani targ'ib qilish, falsafiy timsollarga intilish va hikoya naqshlariga e'tibor qaratish dramalarni tadqiq qilishning umumiy estetik xususiyatlaridir. 90-yillarga kelib, kashfiyot dramasi deyarli to'xtadi.

80-yillarda, kashfiyot dramaturgiyasi kuchayib borayotgan bir paytda, qiyinchiliklarga qaramay realistik drama hamon yaxshi natija ko'rsatardi. Eng mashhurlaridan "Yorqin oy odamlarga porlaydi (明月初照人 míng yuè chū zhào rén)" (Bay Fengsi), "Kim kuchli (谁是强者 shuí shì qiáng zhě)" (Liang Bingkun), "Gaolian qizardi (高粱红了 gāo liáng hóng le)" (Li Jie), "Song ustozning kundaligi (宋指导员的日记 sòng zhǐ dǎo yuán de rì jì)" (Mo Yan), "Do'st kulfatda bilinar (风雨故人来 fēng yǔ gù rén lái)" (Baifengxi), "To'y va a'za (红白喜事 hóng bái xǐ shì)" (Vey Min), "Xiaojing Hutung (小井胡同 xiǎo jǐng hú tòng)" (Li Longyun) va boshqa dramalar. Ular avvalgi bosqichga nisbatan rivojlangan, nafaqat hayot haqiqatiga chuqurroq kirib borgan, balki "O'n etti yil" mulohazalari qilingan va hatto Xitoyning qadimiy madaniy an'analariga ham etib borgan, personajlar yanada boyib, murakkablashgan. Kashfiyot dramasining tanazzulga uchrashi bilan birga realistik drama qaytadan vujudga kelish tendensiyasiga ega bo'ldi, bu davrda realizm ham zamonaviy dramaturgiyaning ifoda texnikasini imkon qadar o'ziga singdirib, o'ziga xos o'zgarishlarni amalga oshirdi. Vakillik asarlari: "Qora tosh (黑色的石头 hēi sè de shí tóu)" (Yang Limin), "Dala yana yashil Shazhang (田野又是青纱帐 tián yě yòu shì qīng shā zhàng)" (Li Jie), "Yushutun uslubi (榆树屯风情 yú shù tún fēng qíng)" (Hao Guochen), "Guta ko'chasi (古塔街 gǔ tā jiē)" (Li Jie), "Bilmayman kimning uyi kuzni o'ylaydi (不知秋思在谁家 bù zhī qiū sī zài shuí jiā)" (Baifengxi), "Dunyodagi birinchi bino (天下第一楼 tiān xià dì yì lóu)" (He Jiping), "Olov xudosi va kuzgi qiz (火神与秋女 huǒ shén yǔ qiū nǚ)" (Su Ley), "Ufqda muqaddas olov to'plami bor (天边有一簇圣火 tiān biān yǒu yì cù shèng huǒ)" (Chjen Zhenxuan) va boshqalar.

90-yillarda Guo Chihong, Guo Shixing va Yao Yuanning pyesalari e'tibor berishga arzirli dramalar hisoblanadi.

Guo Chihongning “Janubiy Tang sulolasi merosi (南唐遗事 nán táng yí shì)”, “Sima Tsian (司马迁 sī mǎ qiān)”, “Chjuo Venjunning vidolashuvi (卓文君别传 zhuó wén jūn bié chuán)”, “Cheng Chjaocai (成兆才 chéng zhào cái)” kabi Kunsu va Pingju drama shaklidagi asarlari bor. 90-yillarning boshida Guo Chihong Shimoliy Kun opera teatridan Pekin xalq badiiy teatriga ko‘chib o‘tdi va to‘rt pardali “Li Bay” tarixiy dramasini yozdi, bu asarida Tan davri she‘riyat sultoni, shoir Li Bay bosh qahramon bo‘lib, unda Li Bay hayotining past-balandliklari, Anshi qo‘zg‘olonidan keying xaēt tapзи ko‘rsatilgan. Dramaturg aynan Li Bayning hayot yo‘li va ma‘naviy tajribalarini namoyish etishda an‘anaviy xitoy ziyolilarining ichki qarama-qarshiliklari va ma‘naviy chalkashliklarini chuqur ifodalab, dramaturgning tarix va inson tabiatining ochilishi haqidagi mulohazalarini yoritadi.

Keyingi davrlarda yaratilgan pesalar bu turdagi pesalardan farqli ravishda inson erkinligi, shaxs erkinligi masalalariga e‘tibor qaratila boshlanadi. Taniqli xitoy yovuchilaridan biri Xu Shi “Vatan” pesasi orqali shaxsiy erkinlikni qurbon qilganlarga qarata javob berishga xarakat qiladi, u shunday deb ta’kidlab xam o‘tadi: *“Shaxsiy erkinligingiz uchun kurashish – mamlakat ozodligi uchun kurashishdir!”* (“你们个人的自由，便是为国家争自由！”)¹. Shu bilan birga taniqli dramaturglaridan biri Dong Jian “Zamonaviy xitoy dramaturgiyasi tarixiga oid bir nechta savollar” nomli maqolasida shunday deydi: *“Oltin asr” dan keyingi yillarda dramaturgiya rivojlanishda biroz suslashdi. Bu XX asrning ikkinchi yarmi so‘ngi 10 yilliklariga to‘g‘ri keladi.* (1990 年至 2000 年，这是 20 世纪的最后 10 年，可“黄金时代”过后的平庸年代)². *1980 yillardagi ma‘naviy an‘analardan voz kechilmadi, sahnada hali ham juda yaxshi pesalar namoyish etildi. Masalan, “Shang Yang” (Yao Yuan) dramasi, garchi rejissyor (Chen Sinyi) unga “tomoshabozlik” bezaklarini yuklagan bo‘lsa-da, baribir ajoyib g‘oya va san‘atga ega noyob asardir. Ta’kidlash joizki, boshqa ajoyib dramalar qatoriga “Qizil bayroq” (Li Longyun), “Bekorchilar trilogiyasi” (Guo Shi Sin: “Qushchi”, “Baliqchi”, “Shaxmatchi”), “Hayot va o‘lim dalasi” (Tyan Tinsin), “Go‘zal vaqt” (Chjao Yaomin) va boshqalar” kiradi.*

Shuni qo‘shimcha qilish kerakki, ushbu asarlarning barchasi zamonaviylik bilan muloqot olib boradi, qayta tiklangan tarixiy rasmlar va epizodlar orqali biz zamonaviylikni badiiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini kuzatamiz. Shuningdek, mamlakat o‘tmishini ta’kidlash uchun yangi estetik mezonlarni ishlab chiqish, shuningdek tarixning mohiyatini sifat jihatidan yangi pozitsiyalardan tushunish muhimdir.

¹ 董 健. 关于中国当代戏剧史的几个问题.

² 董 健. 关于中国当代戏剧史的几个问题.

XULOSA

XX asr birinchi yarmi Xitoy dramaturgiyasining eng muhim jihati uning ijtimoiy muammolarni tasvirlashda, jamiyat xayotining salbiy tomonlarini fosh tanqidiy ruh, satiraning etakchi mavqe egallaganida namoyon bo'ldi. Inqilobdan keyingi davrda yaratilgan pьesalarda esa mavjud tuzimga qarshi tanqidiy fikr-mulohazalar, mushohadalarni aks ettirish tamoili kuchaydi. Drama izlanishlari orqali Xitoy 话剧 huà jù badiiy tushunchalari, ijodiy g'oyalar va estetik izlanishlar tomondan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi. Badiiy tushuncha nuqtai nazaridan dramaturgiya siyosatga bo'ysunishdan qutulib, oddiy siyosiy vosita bo'lmay qoldi. Yozuvchilar endi hayotni faqat siyosiy nuqtai nazardan emas, balki butun jamiyat nuqtai nazaridan, madaniyatning barcha jabhalaridan kelib chiqib kuzatadi va ifodalaydi, hayot, uning boyligi va murakkabligi haqida yozadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 中国现代文学史 1917-1997/北京/2008 年。
2. 中国现代戏剧史/北京/2008 年
3. 中国新文学大系/ 1927-1947/ 戏剧集一。 2003 年。 260 页。
4. 评董健、胡星亮主编的《中国当代戏剧史稿》 2014.
5. 孙犁. 宗璞小说散文选序. -北京: 出版社,1981 年
6. Ҳафиз Абдусаматов. Драма назарияси. 2000й. 79 б
7. Zhen Enbo. Chinese literature. Cultural and publishing house. Beijing/ 1999.
8. Алексеев В.М. Труды по китайской литературе. В двух томах. “Восточная литература” РАН 2003.
9. Литература (1928-1949)./ История Китая с древнейших времен до начала XXI века. М., Наука – Вост. лит., 2013.
10. Никитина А.А. Эволюция персониферы китайской прозы второй половины XX века.- Санкт Петербург, 2017 г.